



**Abror ABDUSALIMOV,**  
*Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: abrorabdusalimov94@gmail.com*

*TDTTrU professori, f.f.d J.Ramatov taqrizi asosida*

## MUSTAQILLIKDAN AVVALGI DAVRDA HINDISTON YARIMOROLI VA MIRZO G'OLIB ASARLARIDA UNING AKS ETTIRILISHI

Аннотация

Ushbu maqolada mustaqillikdan avvalgi Hindiston yarimoroli tarixining 19–20-asr adabiyotida, xususan Mirzo G'olib asarlarida aks etishi tahlil qilinadi. Ingliz mustamlakachiligi davrida yuzaga kelgan ijtimoiy va ma'naviy tanazzul shoir ijodida tarixiy xotira va ruhiy qarshilik orqali ifodalanadi. G'olib asarlari musulmon jamiyatini o'tmishidan saboq olishga, ma'naviy uyg'onishga va o'zligini anglashga chorlaydi.

**Kalit so'zlar:** Hindiston yarimoroli tarixi, Mirzo G'olib, mustaqillikdan avvalgi Hindiston musulmonlari, adabiyot.

## THE INDIAN SUBCONTINENT IN THE PRE-INDEPENDENCE PERIOD AND ITS REFLECTION IN THE WORKS OF MIRZA GHALIB

Annotation

This article analyzes the representation of the history of the Indian subcontinent in pre-independence literature of the nineteenth and twentieth centuries, with particular emphasis on the works of Mirza Ghalib. The social and spiritual decline that emerged during the period of British colonial rule is expressed in the poet's oeuvre through historical memory and spiritual resistance. Ghalib's works call the Muslim community to draw lessons from the past, to spiritual awakening, and to the awareness of cultural and historical identity.

**Key words:** History of the Indian subcontinent, Mirza Ghalib, Muslims of pre-independence India, literature.

## ИНДИЙСКИЙ СУБКОНТИНЕНТ В ДОКОЛОНИАЛЬНЫЙ ПЕРИОД И ЕГО ОТРАЖЕНИЕ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ МИРЗЫ ГАЛИБА

Аннотация

В данной статье анализируется отражение истории Индийского субконтинента в литературе периода до обретения независимости в XIX–XX веках, с особым акцентом на творчестве Mirza Ghalib. Социальный и духовный упадок, возникший в эпоху британского колониального господства, находит выражение в поэтическом наследии автора через призму исторической памяти и духовного сопротивления. Произведения Галиба призывают мусульманское сообщество извлекать уроки из прошлого, к духовному пробуждению и осознанию культурной и исторической идентичности.

**Ключевые слова:** История Индийского субконтинента, Мирза Галиб, мусульмане Индии до обретения независимости, литература.

**Kirish.** Hindiston yarimoroli tarix davomida Sharq va G'arbni bog'lovchi muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy makon bo'lib kelgan. Qadimiy Ipak yo'li tarmoqlari, xususan Karakoram yo'li orqali u Xitoy bilan tutashib, savdo va madaniy almashinuv markaziga aylangan. Bu hudud turli elatlar, tillar va dinlar uyg'unlashgan rang-barang sivilizatsiyani shakllantirgan.

Musulmonlar istilosidan so'ng yarimorolga Arabiston, Eron va Markaziy Osiyodan so'fiylar, olimlar va avliyolar kirib kelib, bag'rikenglik va ma'rifatga asoslangan islomiy madaniyatni yoydilar. Bu jarayon mahalliy urf-odatlar bilan uyg'unlashib, o'ziga xos musulmon madaniy muhitini vujudga keltirdi. Keyingi asrlarda Boburiylar saltanati siyosiy qudrati, san'at, me'morchilik va madaniyatga homiyliги bilan ajralib turdi. Vaqt o'tishi bilan Boburiylar davlati zaiflashib, uning o'rmini Britaniya imperiyasining mustamlakachilik hukmronligi egalladi. Bu holat musulmonlarning ko'p asrlik siyosiy va madaniy ustunligi yakunlanib, tanazzul davrining boshlanishiga olib keldi. Shunga qaramay, musulmonlar son jihatdan kam bo'lsa-da, uzoq vaqt davomida davlat boshqaruvi, harbiy va iqtisodiy hayotda yetakchi mavqeni saqlab kelganlar.

Hindiston yarimorolidagi musulmon jamiyati ikki asosiy qatlamdan shakllangan: tashqaridan kelgan fathchilar, savdogarlar va missionerlar hamda islomni qabul qilgan mahalliy aholi. Ushbu qatlamlar o'rtasidagi uzluksiz o'zaro ta'sir natijasida noyob diniy va madaniy sintez yuzaga kelgan. Islomning keng tarqalishida esa so'fiylarning yumshoqlik, bag'rikenglik va insonparvarlikka asoslangan faoliyati muhim rol o'ynagan [3].

1870–1880-yillardagi Britaniya aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari musulmonlarning Hindiston yarimoroli bo'ylab keng tarqalganini va ularning aksariyati mahalliy aholi avlodlari ekanini ko'rsatdi. Ularning kundalik turmushi va kasb-kori ko'plab hududlarda boshqa aholiden deyarli farq qilmagan bo'lib, bu islomning mahalliy madaniyat bilan chuqur uyg'unlashganini tasdiqlaydi.

1707-yilda Boburiylar imperiyasining so'nggi qudratli hukmdori Avrangzeb vafotidan keyin davlat tezda zaiflashdi. Ichki nizolar, Nodirshoh va Ahmadshoh Abdoli yurishlari markazlashgan boshqaruvni yemirib, mustaqil knyazliklarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu holatdan britaniyaliklar foydalanib, 1757-yil Plassi jangida g'alaba qozonib, ingliz mustamlakachiligi davrini boshlab berdilar.

Britaniya hukmronligi musulmonlar uchun chuqur siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tanazzulni keltirib chiqardi. Yer egaligi, ta'lim va davlat xizmatlaridan chetlatilish natijasida ular jamiyatdagi yetakchi mavqeini yo'qotib, uzoq muddatli qaramlik va ruhiy tushkunlik holatiga tushib qoldilar[4].

Ushbu fikrlar shuni ko'rsatadiki, musulmonlar ilgari mamlakat taraqqiyotining tayanch kuchi bo'lgan bo'lsalar-da, Britaniya hukmronligi davrida ularning siyosiy, ma'muriy va ijtimoiy mavqei keskin pasaygan, ular jamiyatning faol qatlamidan chetlashtirilgan. Mustamlaka siyosati musulmonlarning nafaqat iqtisodiy imkoniyatlarini, balki ularning ma'naviy va madaniy hayotini ham izdan chiqardi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mashhur urdu shoiri Mirzo G'olib (1797–1869) o'zining “Dastanbuy” asarida 1857-yilgi qo'zg'olon va undan keyingi davrdagi xalqining og'ir hayotini chuqur iztirob bilan tasvirlaydi. U o'zi ham qatl etilish xavfidan zo'rg'a qutulib qolganini eslatadi. G'olibning so'zlariga ko'ra, britanlar g'alabadan keyin nihoyatda shafqatsizlik bilan ish tutganlar, hatto eng kichik gumonning o'zi ham odamni osishga sabab bo'lgan. Shoir o'z asarida shunday yozadi:

“Bugungi kunda biz o'zimizni mahbuslardek his qilamiz, aslida esa hayotimizni ham mahbuslardek kechirmoqdamiz.”

U bu fikrni davom ettirib, shunday deydi:

“Odamlar sabr va bardosh kuchini butunlay yo'qotgan.”

G'olib o'sha davrning dahshatli manzaralarini nihoyatda ta'sirchan ifoda etadi:

“Shaharning aksariyati allaqachon qochib ketgan, biroq umid va umidsizlik orasida qolgan ba'zilar hali ham devorlar ichida yashamoqda. Dehlidan tashqaridagi yakkalangan joylarda yashirinayotganlar haqida esa hech qanday xabar yo'q. Shaharda qolgan nochor insonlarning ham, tashqarida g'am-g'ussaga botgan xalqning ham yuragi iztirobga to'la, ular ommaviy qirg'in boshlanishidan qo'rqib yashamoqdalar.” [2].

G'olibning Boburiy shahzodalar haqidagi qaydlarida esa 1857-yilgi qo'zg'olondan keyingi fojeali voqealar aniq ifodalangan:

“Ba'zilar otib tashlangan... ba'zilar esa bo'yinlariga arqon solinib, osilgan. Arqon burilgani sayin ularning joni tanani tark etgan.”

Shoir bu so'zlari orqali qo'zg'olondan keyingi davrda musulmonlar va hindlar taqdiridagi keskin tafovutni chuqur iztirob bilan ochib beradi. Uning yozishicha, 1858-yil yanvar oyida hindlar shahar hayotiga qaytish va o'z faoliyatlarini tiklash huquqiga ega bo'lgan bir paytda, musulmonlarning uylari hanuz tashlandiq holda qolgan, ularning atrofi yovvoyi o't-o'lanlar bilan qoplangan edi. G'olib bu manzarani quyidagicha tasvirlaydi:

“Musulmonlarning tashlab ketilgan uylari shunchalik o't bosib ketganki, go'yo devorlari g'iyohdan qurilgandek. Har bir o't yaprog'i bu uylar hanuz egasizligini eslatib turadi.” [2].

Manbalarga ko'ra, 1857-yilgi qo'zg'olondan keyin o'rnatilgan siyosiy tuzum musulmon zodagonlarining tugatilishi va musulmon siyosiy hokimiyatining butunlay barbod bo'lishiga olib keldi. Dehlidan musulmon aholisining ommaviy ko'chib ketishi va yetakchilik inqirozi bu davrning naqadar og'ir bo'lganini ko'rsatadi.

Garchi inglizlar 1757-yildagi Plassi jangidan so'ng hukmronlikni boshlagan bo'lsalar-da, musulmonlarning ko'p asrlik siyosiy ustunligini faqat bir asr o'tibgina — 1857-yilda to'liq tugata oldilar. Tarixiy manbalar Hindistonning yagona siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tizim sifatida shakllanishi musulmon hukmdorlar yaratgan markazlashgan davlat tuzilmalari bilan bog'liq ekanini tasdiqlaydi.

Maurya hukmdorlari davrida ham Hindiston yagona siyosiy birlikka ega bo'lmagan. Tarixiy paradoks shundaki, mamlakatni bir markaz ostida birlashtirgan musulmonlar keyinchalik o'zlari milliy mustaqillik uchun kurashishga majbur bo'ldilar. Sultonlik davrigacha parokanda bo'lgan bu hudud musulmonlar hukmronligidan so'ng “Hind” nomi bilan yagona mintaqa sifatida tanila boshladi.

Mazkur masalaga taniqli tarixchi I.H. Qureshiy o'zining “Pokiston uchun kurash” (The Struggle for Pakistan (1974)) asarida quyidagicha ilmiy yondashadi:

“Hindiston” degan siyosiy birlik g'oyasini aynan musulmonlar ilgari surganlar. Ular hukmronligigacha bu yurt turli nom, til va urf-odatlariga ega mustaqil mintaqalardan iborat bo'lgan. Ha, ular o'rtasida umumiy madaniy qadriyatlar mavjud edi, biroq Hindiston tarixan yagona siyosiy boshqaruvni deyarli hech qachon bilmagan.” [7]

Musulmon hukmdorlar Hindistonning keng hududlarini yagona siyosiy tuzilma ostida birlashtirish bilan birga, uning madaniy xilma-xilligini asrab-avaylash, tillar, dinlar va urf-odatlarining o'zaro uyg'unligini ta'minlashga ham muvaffaq bo'ldilar. Biroq tarixning achchiq kinoyasi shundaki, oradan vaqt o'tib, aynan shu musulmon hukmdorlar mamlakat siyosiy va hududiy birligini buzganlikda ayblandilar.

Aslida esa mustaqillikdan keyingi siyosiy muhit va Butun Hindiston Milliy Kongressining faoliyati sobiq musulmon zodagonlarini – o'sha davrning siyosiy va ma'naviy elitasini – ijtimoiy hayotdan chetlashtirdi. Natijada ular o'z siyosiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida mamlakatni bo'lish masalasini kun tartibiga chiqarmoq zarur deb bildilar.

1857-yilgi voqealar – ingliz tarixchilari “Qo'zg'olon” deb ataydigan jarayon – musulmonlarga qarshi tizimli ravishda yo'lga qo'yilgan tuhmat, kamsitish va adovat siyosatining boshlanish nuqtasiga aylandi. Boburiylar imperiyasining qulashi esa Hindiston siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotida tub burilish yasab, keng ko'lamlı inqiroz davrini boshlab berdi. Bu inqirozdan eng katta zarar ko'rgan qatlam musulmon jamoasi bo'ldi – ularning milliy o'zligi zaiflashdi, ijtimoiy mavqei pasaydi, yuraklariga esa o'tgan buyuk davrlar – qudrat, shon-shuhrat va farovonlik haqidagi sog'inch chuqur singib bordi. Go'yo taqdir g'ildiragi endilikda ularning manfaati sari aylanmayotgandek edi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot tarixiylik va tizimli tahlil tamoyillariga asoslanadi. Ish jarayonida tarixiy-taqqoshlama, mantiqiy-tahliliy va manbashunoslik usullaridan foydalanildi. XIX–XX asrlarga oid tarixiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar, mustamlakachilik davri manbalari hamda ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Adabiy-tarixiy yondashuv asosida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning adabiyotda, xususan Mirzo Asadullohxon G'olib ijodida aks etishi tahlil qilindi va natijalar umumlashtirish hamda xulosalash usullari orqali ilmiy jihatdan baholandi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida ko'plab adiblar tarixiy tanazzul va ma'naviy iztirobni badiiy-falsafiy shaklda ifodalagan bo'lsalar, G'olib bu jarayonni eng teran va nozik falsafiy idrok bilan yoritgan ijodkor sifatida ajralib turadi.

U 1857-yil voqealari arafasida Dehlida yashab, fors va urdu tillarida ijod qildi hamda asarlarida musulmon hukmronligining tanazzuli, madaniy merosning so'nishi va insoniy qadriyatlarining yemirilishini chuqur mushohada qildi. Shoiming do'stiga yo'llagan maktublarida ham zamon ruhining inqirozi va adabiy-madaniy muhitning parokandaligi haqidagi iztirob aniq ifodasini topgan[5].

Oradan uch yil o'tmay, saroy hayoti va uning atrofidagi ijtimoiy-madaniy tuzum qonli to'lqinlar girdobida butunlay qulab tushdi. G'olib bu fojeani chuqur mushohada etib, quyidagi abadiy hikmatni yozgan edi:

“Bu dunyo o'tkinchi – uning buyukligi bilan maqtanma, Chunki bir kun kelib, bu yuksaklikning o'zi ham qulashga mahkum bo'ladi.”

Ushbu satrlar hayotning o'tkinchiligini, shon-shuhrat va qudratning abadiy emasligini falsafiy ohangda ifoda etadi. Shoir insonni kibr va g'ururdan tiyilishga, dunyo ne'matlarining vaqtinchaligini anglashga, hayotning o'zgaruvchan mohiyatini teran idrok etishga chorlaydi.

G'olib o'z maktublaridan birida o'tgan buyuk davrlar xotirasini izzat bilan eslab, shunday yozadi:

“Afsus, taqdirim shunday ekan – kulfatlar menga nasib etgan, omborlarim kulga aylangan. Ajdodlarim singari jangga o'tlanish imkoniyatim ham yo'q edi.” [6].

Britaniya mustamlakachiligi musulmon zodagonlarining siyosiy orzu-umidlarini so'ndirgan bir davrda G'olib bu ruhiy ezilish va ichki izzatini quyidagi satrlar orqali ifodalagan:

“Ular Ajam shohlarining bayroqlaridagi durlarni yulib oldilar, Va o'rniga menga xazinani sochuvchi bir qalam berdilar.” [6]

**Tahlil va natijalar.** Mirzo G'olib o'zining teran tafakkuri, ziyak aql-idroki va badiiy nigohi bilan Mug'al saltanatining yemirilish jarayonini, u bilan birga ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tuzilmalar izdan chiqayotganini chuqur his etgan edi. Shoir bu qaytarilmas inqirozning og'riqli holatini ramziy obrazlar orqali nihoyatda ta'sirchan ifodalaydi:

“Shamol qarshi esmoqda, tun qorong'u,

Dengiz to'lqinlar bilan to'lgan;

Langar uzilgan,

Kema egasisiz – sarkarda esa uyquda.” [6]

Ushbu misralarda G'olib inqiroz sari og'ayotgan jamiyatni “langari uzilgan kema”ga, beparvo rahbari esa “uyqudagi sarkarda”ga qiyoslab, qudratli saltanatning yo'nalishsiz qolganini, xalq esa beqarorlik dengizida adashganini mahorat bilan tasvirlaydi.

Pavan K. Varmaning ta'kidlashicha, G'olibning quyidagi baytlari o'zidagi chuqur istehzo va ataylab berilgan ikki ma'nolilik orqali so'nib borayotgan eski tuzumning zaiflashgan qudratini tan olish, uni falsafiy idrok etish ramzidir:

“Agar men kunduzi talanmagan bo'lganimda,

Qanday qilib kechasi tinch uxlay olardim?

Endi o'g'rilikdan qo'rqmayman,

Shuning uchun o'g'riga duo qilaman.

O'tgan shon-shuhratni qaytarishni istash biz uchun adolatsizlikdir,

Chunki o'g'irlangan narsa aslida qarz edi – bu talon emas.” [6]

Bu satrlar orqali shoir qulagan saltanatni fojia sifatida emas, balki tarixiy zarurat va tabiiy o'zgarish jarayoni sifatida talqin etadi. U o'tgan davr yo'qotilishini achinish bilan emas, balki falsafiy iroda, istehzoli xotirjamlik va hayot haqiqatini anglash ruhida qabul qiladi. G'olib uchun bu “talon” emas – balki insoniyatning tarix oldidagi “qarzini ado etish” holatidir. Shu tariqa, shoir insonni o'tgan buyuklikka mahliyo bo'lishdan voz kechishga, haqiqatni qabul qilish va yangi hayot sharoitiga moslashishga da'vat etadi.

Pavan K. Varma G'olibning quyidagi satrlarini uning taqdir oldidagi o'zligi, insoniy izzatini va ruhiy kechinmalarining eng samimiy ifodasi sifatida talqin qiladi:

“Baxtsizlik keldi va kelgach,

Ketish alomatini ham ko'rsatmadi.

Go'yoki shoh mat qilinishi kerak edi,

Ammo qandaydir tarzda najot topdi.” [6]

Bu baytlar inson hayotidagi uzluksiz sinovlar, umidsizlik va vaqtinchalik najot holatining ramziy ifodasidir. G'olib hayotni shaxmat o'yiniga qiyoslab, insonni taqdir qarshisida o'z, biroq kurashdan voz kechmagan mavjudot sifatida tasvirlaydi. “Shohning qutulib qolishi” – insonning qanchalik og'ir sinovlar ichida bo'lmasin, umidni yo'qotmaslikka bo'lgan intilishining badiiy ifodasidir.

Shoirning keyingi baytlarida ilohiy adolat va inson taqdiriga munosabat, ichki norozilik hamda falsafiy izlanish ohangi ustuvorlik qiladi. Xudoga murojaat orqali G'olib inson boshiga tushgan musibatlarining ma'nosini anglashga urinadi. Bu satrlarda shikoyatdan ko'ra, dard, sabr va adolat haqidagi chuqur falsafiy mulohaza mujassam bo'lib, kinoyaviy, ammo samimiy ohangda hayot sinovlarining inson ruhini charxlashi ta'kidlanadi. Mazkur davrga oid she'rlari G'olibning tarixiy tanazzul bilan birga insoniyatning ruhiy va madaniy inqirozini ham teran anglaganini ko'rsatadi. Shoir nazarida bu qulash yakun emas, balki yangi ong, ma'naviyat va tafakkur uchun zamin yaratuvchi zaruratdir.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, Mirza G'olib postmustamlakachilik adabiyotining yirik vakili sifatida maydonga chiqadi. U o'z davrining ijtimoiy-siyosiy inqirozlarini badiiy vositalar orqali hujjatlashtirgan. Mirzo G'olib 1857-yilgi mustaqillik urushi davrida yashab, davr fojialarini maktublar va g'azallar orqali ifodalagan. U musulmon e'tiqodiga sodiq bo'lgan, biroq uning ayrim asarlarida Yaratganga nisbatan shikoyat ohanglari seziladi. G'olib o'z davrining ruhiy, siyosiy hamda madaniy jarayonlarini teran badiiy nigoh bilan tahlil etib, o'z xalqining tarixiy kechinmalarini adabiyotda abadiylashtirgan buyuk ijodkordir.

#### ADABIYOTLAR

1. Boulnois, Luce. Silk Road: Monks, Warriors & Merchants on the Silk Road. – Geneva: Odyssey, 2004. – 183 p.
2. Ghalib, M. A. K. Dastanbuy: A Diary of Indian Revolt of 1857-58. – Trans. Khwaja Ahmad Farooqi. New York: Asia Publishing House, 1970 – 93 p.
3. Hardy, P. The Muslims of British India. – Cambridge: Cambridge University Press, 1972. – 316 p.
4. Hunter, William. The Indian Musalmaans. – Lahore: Premier Book House, 1974. – 187 p.
5. Hyder Q. & S. Jafri. Ghalib and His Poetry. – Mumbai: Popular Prakashan, 1970. – 95 p.
6. Pavan K. Varma. Ghalib, the Man, the Times. - New Delhi: Viking Penguin India, 1989. – 224 p.
7. Qureishi, I. H. The Struggle for Pakistan. – Karachi: University of Karachi Publications, 1974. – 310 p.